UDK:392.2(575.146) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a198**

NIKOH URF-ODATLARI BILAN BOG‘LIQ KIYIMLARNING TO‘Y QO‘SHIQLARIDAGI POETIK TALQINI

ПОЭТИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ОДЕЖДЫ СВЯЗАННОЙ С БРАЧНЫМЫ ОБЫЧАЯМИ В СВАДЕБНЫХ ПЕСНЯХ

POETIC INTERPRETATION OF CLOTHES RELATED TO MARRIGE CUSTOMS IN WEDDING SONGS

Shomurodova Sunbula G‘olibovna[1]

[1]Shomurodova Sunbula G‘olibovna – Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti doktoranti (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada nikoh to‘yi marosimi bilan bog‘liq kiyim-kechaklar obrazi an’anaviyligi, turg‘un ramziy obraz sifatida kelishi haqida so‘z yuritilgan. Liboslar o‘zbek folklorida real va ramziy ma’nolarda sevgi, oila, farzand, hosildorlik g‘oyalari, maishiy turmush bilan bog‘lab keltiriladi. Hamda har bir xalq qo‘shig‘i ijtimoiy turmush tarzidan darak beradi. Ko‘pincha marosim qo‘shiqlarida eski va yangi turmushga xos predmet va buyumlar ham qiyoslanib keladi. Umumxalq tili leksik boyligining ajralmas qismini tashkil etgan kiyim-kechak nomlari nafaqat badiiy ifoda bilan keladi, balki o‘z atalish xususiyatlari mavjudligini isbotlab beradi. Shuningdek, kiyim-kechaklardagi etak, belbog‘, yoqa kabi yordamchi qismlar ham o‘zining ramziy ma’nosiga egadir. Ular muayyan badiiy-estetik vazifalarni ifodalagan. Nikoh marosimida kelin va kuyov kiyadigan liboslar tarkibida ko‘rsatib o‘tilgan mato turlari qo‘shiqda uchraydigan lirik qahramonning qaysi tabaqa vakilidan bo‘lganligini obrazlantirish vositasi bo‘lib ham ko‘rsatib beradi. Xususan, xalq lirikasida jinslar sevgisi, oila, farzand, do‘st-dugonalar, ota-onaga mehr-muhabbat tuyg‘ularini aks ettirishda kiyim-kechak obrazlari alohida o‘ringa egaligi tarixiy-madaniy hamda qiyosiy-analitik metodlar orqali yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье говорится о традиционности изображения одежды, связанной со свадебным обрядом, выступающей как устойчивый символический образ. В узбекском фольклоре одежда связана с преставлениями о любви, семье, детях, плородии, домашнем хозяйстве в реалном и символическом плане. Также каждая народная песня отражает социальный образ жизни. Нередео обрядовых песнях сравниваются предметы и вещи, характерные для старых и новых браков. В песнях отражена магическая сила слова, вера в него и связанные с ним обряды. Названия одежды, составляющие неотъемлемую часть лексического богатсва национального языка, обладают не только художественной выразительностью, но и доказывают наличие составляющие у них свойств номинации. Также свое символическое значение имеют вспомоготельные детали, такие как юбки, пояса и воротник в одежде. Они выражали конкретную художественную и эстетическую задачу. Виды тканей, изображенные на платьях жениха и невесты во время венчания, также указывают на классовую приднадлежность лирического героя песни. В частности, с помощью историко-культурного и сравнительно-аналитического методов выделено значение образов одежды в выражении любви полов, семьи, детей, друзей и родителей в нородной лирике.

Abstract

This article talks about the traditionality of the image of clothes related to the wedding ceremony, coming as a stable symbolic image. In Uzbek folklore, clothes are connected with the ideas of love, family, children, fertility, household life in real and symbolic terms. Also, every folk song reflects the social lifestyle. Often, in ritual songs, objects and things specific to old and new marriages are compared. The songs reflect the magical power of the world, belief in it, and the rituals associated with it. The names of clothes, which are an integral part of the lexical wealth of the national language, come not only with artistic expression, but also prove the existence of their naming features. Also, auxiliary parts such as skirts, belts and collars have their own symbolic meaning. The expressed a specific artistic and aesthetic task. The types of fabrics shown in the dressesworn by the bride and groom during the marriage ceremony also show the class representative of the lyrical hero in the song. In particular, the importance of clothing images in the expression of the love of the sexes, family, children, friends and parents in folk lyrics has been highlighted through historical-cultural and comparative-analytical methods.

Kalit so‘zlar: *“Etak yirtar”, “oqlik”, “sovchilik”, “ro‘mol o‘rash”, “qalliq o‘yini”, “to‘qqiz bichish”, “fotiha”, chimildiq, “beshik kerti”*

Ключевые слова: *«Разорви юбку», «белизна», сватовство, «завертывание платка», «остаточная игра», «разрезание девятки», «благословение», чимильдик*

Key words: *“Tear the skirt”, “whiteness”, “matchmaking”, “wrapping a scarf”, “residue game”, “nine cutting”, chimildiq , “beshik kerti”*

KIRISH

Jahon folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodining turfa janrlarida turli darajada o‘z badiiy ifodasini topgan xalq tarixi, uning turmush tarsi madaniyati tadqiqi folklorshunoslikning doimiy dolzarb vazifalaridan bo‘lib kelgan. Bu silsilada liboslar ana’anaviylashgan ramziy obraz hamda timsollar ham barcha xalqlar folklorida kishilarning milliy dunyo qarashi, yashash hududi, madaniyatiga muvofiq poetic talqin etilishi kuzatiladi. Shuning uchun har bir xalq ijodida ularning tarixiy-tadrijiy talqin xususiyatlarini ochish, mifologik va ijtimoiy- hayotiy asoslarini yoritish, poetik, semantic-struktural xususiyatlarini ritual-mifologik nuqtayi nazardan aniqlash zarur va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kiyim – inson ma’naviyati va madaniyatining bir ko‘rinishidir. Azal-azaldan milliy liboslarimiz jahon xalqlari o‘rtasida o‘z mavqeiga ega bo‘lgan. Kiyim-kechaklarimiz xalqimiz tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqimizning milliy o‘zligini aks `ettirib turadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida kiyim-kechaklar obrazi an’anaviyligi, turg‘un ramziy obraz sifatida kelishi bilan e’tiborni tortadi. Xususan, nikoh to‘yi marosim qo‘shiqlarida keladigan jinslar sevgisi, oila, farzand kabi tushunchalarni aks ettirishda kiyim-kechak obrazlari alohida o‘ringa ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek xalqining sevimli qahramonlik eposi – “Alpomish” dostonida o‘zbek nikoh to‘ylarining uch bosqichi: 1) nikoh to‘yigacha bo‘ladigan urf-odatlar; 2) nikoh to‘yi vaqtida o‘tkaziladigan marosimlar; 3) nikoh to‘yidan keyin o‘tkaziladigan marosimlar tasviri yorqin badiiy aks ettirilgan.

Dostonda o‘zbek nikoh to‘yining birinchi bosqichiga daxldor “qiz tanlash” yoki “qiz ko‘rish”, “og‘iz iskash”, “sovchilik”, “ro‘mol o‘rash”, “fotiha”, “qalliqqa bormoq” yoki “qalliq o‘yini”, “to‘qqiz bichish” singari udumlar va ularga aloqador poetik aytimlar doston sujetiga mahorat bilan singdirilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, dostonda sovchilik udumi aks ettirilar ekan, u bilan bog‘liq “sarpo kiydirish” odati alohida tilga olingani kuzatiladi. Darhaqiqat, udumimizga binoan, agar qiz tomon kelgan sovchilar bilan qudalashishga rozi bo‘lsa, ularga zo‘r ziyofat berish barobarida qimmatbaho sarpolar ham kiydirib jo‘natish odati hozirgacha saqlanib kelayotir. Ma’lumki, dostonda sovchilikka kelgan Surxayil kampirni it talab, egnidagi kiyimlarini yirtadi. Uning yalang‘och bo‘lib qolganini ko‘rib, bo‘yicha uyiga borib, yangi kiyimlar olib kelib, kampirning ustidagi kuchuk yirtgan kiyimlarini yechib olib, yangi kiyim kiydirib, kuchuklarin urib, kampirning dimog‘ini chog‘ qilib, uyiga ergashtirib boradi. Yolg‘onchi kampir esa shu holatni yashirib, Qorajonni aldaydi. U ustidagi yangi kiyimlarni Barchinning onasi it talagani uchun berganini yashirib, aksincha, to‘yga roziligi uchun berdi deb aytadi. Onasiga ishongan Qorajon: «Enam bizni ko‘rganli yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarposini qilib yuboribdi», – degan fikrga boradi.

O‘tmishda sovchilikning turli ko‘rinishlari bo‘lgan. Ulardan biri yaqin qarindoshlarning, bir-biri bilan sinashta odamlarning o‘zaro quda bo‘lishni rejalashtirib, bolalarini chaqaloqlik yoshidan bir-biriga “atashtirib qo‘yish”, “qulog‘ini tishlatish”, “beshik kerti qilish”, “etak yirtar qilish” odatidir. Deyarli unutilgan bu qadimiy odat “Alpomish” dostonining Qorabaxshi Umirovdan yozib olingan variantida Hakimbek bilan Barchinoyni “etak yirtish” qilib, unashtirib qo‘yish motivida kuzatiladi: “Hakimbek bilan Barchinoyning orqa yetagini birga ushlab yirtdi, ikkovini “etak yirtish” qilib unashtirib qo‘ydi”.

Tadqiqotchi Latifa Xudoyqulova surxon vohasi sovchilik qo‘shiqlari va aytimlariga nazar qaratar ekan, hududdagi sovchilik ko‘rinishlarini ham aytib o‘tadi. U “etak yirtar” shunday odatlardan biri ekanligini ta’kidlab, bu odatga ko‘ra Surxon vohasining Denov tumanida qiz bola tug‘ilganida kelin qilishni niyat qilgan oila mazkur xonadonga tashrif buyurib, chaqaloqqa kiygizilgan ko‘ylakning etagini irim qilib yirtib qo‘ygan.

“Etak yirtar”, “beshik kerti” qilingan qizcha voyaga yetganida uning etagini yirtgan yoki beshigini kertgan oila tomonidan “el belgisi” deb nomlangan marosim o‘tkazilgan. Buning uchun oilaning yaqin qarindosh-urug‘lari va mahalla oqsoqollari ishtirokida qizning uyiga biror jonliq, ko‘pincha qo‘chqor olib kelib so‘yganlar va fotiha o‘qiganlar shundan so‘ng bu qiz “belgili” hisoblangan va uning uyiga boshqa xonadondan sovchi qo‘yilmagan.

Dostonda Qorajonning Alpomish nomidan Barchin huzuriga sovchi bo‘lib kelishi motivi ham berilgan. Barchin sovchilik an’analariga binoan, o‘z roziligini izhor yetish uchun “Qorajonni mehmon qila boshlaydi. Ostiga libos tashlaydi”.

Yigit tomondan kelgan sovchilarga qiz tomon rozi bo‘lib, sarpo kiydirib jo‘natgach, kuyov tomondan qizga “oqlik” keltiriladi va “non sindirish”, “ro‘mol berish” yoki “oq ro‘mol o‘rash”, “fotiha

qilish”, “qalin kesish” kabi odatlar amalga oshiriladi. Ko‘rinadiki, bularning barchasida ma’lum bir kiyim turlari “rozilik ramzi” sifatida xizmat ko‘rsatadi.

Shundan so‘ng qiz o‘sha yigitga unashtirilgan hisoblanib, “boshi bog‘liq” deb ataladi. Hech kimga unashtirilmagan bo‘y qizlarga nisbatan esa “boshi ochiq” yoki “boshi bo‘sh” iboralari ishlatiladi.

“Alpomish” dostonida Qorajon va Alpomishning qalliqqa borishi tasvirlanar ekan, Qorajonning o‘zbeklarga xos bu odatni bilmagani uchun uning tartib-qoidalarini buzib, xijolatga qolishi aks ettiriladi. To‘g‘ri, u bu haqda ko‘pni ko‘rgan, uylangan mahramlaridan so‘rab-surishtiradi. Ular esa:“Hayit – arafada o‘zbakning kuyovini ko‘rar edik. Shiydam bo‘lib yurar edi. Salla o‘rab, kiyinib turar yedi. Xotinlar kuyov, deb bir nimasini olar edi, haytovur o‘zbakning kuyovi shunday bo‘lar edi”, – deya izoh beradilar. Ko‘rinadiki, ular Qorajonga o‘zbek kuyovlarining hayitda yasanib-tusanishlari haqida ma’lumot berayotirlar. Bu so‘zni eshitib, Qorajon: “Esa o‘zbaki rasm qilayik”, deb telpakni tashlab, yangi liboslar kiyib, boshiga salla o‘rab, to‘qson botmon temirdan sovut kiyib, otga minib, o‘n uch mahramini birga olib, qalliqqa jo‘naydi. Aslida yigitning qalliqqa borishidan kelin yangasi xabardor etiladi. Shunga qarab yanga uni kutib oladi va qiz bilan uchrashtiradi. Biroq Qorajon qalliqqa taklif qilinmagan edi. Shuning uchun u bee’tibor qolib ketadi. Unga hech kim ahamiyat bermaydi. Qorajon: “Yangamiz ko‘rmay qoldi. Mazmuni qizlar bexabar bo‘ldi”, – deb ko‘p aylanib yuradi. Ko‘rganga kulgi bo‘ladi. Buning bosh sababi shuki, “qalliqqa borish” yashirin tarzda, qorong‘i paytda, el ko‘ziga tushmasdan amalga oshirilgan. Qorajon esa bu ishga kuppa-kunduzi, ochiq-oshkora, el ko‘zi chakirishgani, boz ustiga yasan-tusan qilib e’tiborni tortgani sabab xijolatga qoladi.

Dostonda Barchinoyning kelin qilib Qalmoqdan Boysunga uzatilishi voqeasi tasvirlanar ekan, bunda yana bir o‘zbek ona urflarimizdan biri – “Erga ko‘rsatdi” rasmi nomi tilga olingan. Unga ko‘ra, kelinning otasi bir qo‘yni so‘yib, kuyovni chaqirib, ziyofat bergan, unga va yaqinlariga sarpolar ulashgan. So‘ngra yo‘lga otlangan kelin-kuyovlarga ota “oq fotiha” bergan. Dostonda Boysarining Barchinni uzatayotgandagi so‘zi, ota sifatidagi olqishi shunday berilgan:

“Alpomish” dostonida xotin-xalajning dasturxon-sachoq ko‘tarib, yasan-tusan qilib to‘yga borishi tasviri ham keltirilgan. Xotin-xalajlar to‘yga, odatda, gulday yasanib, qirmizi kiyimlarda borishgan. Xususan, Surxondaryo vohasida qizil rangli liboslar, odatda, to‘y libosi sifatida qaralgan. Buning ta’kidi “Alpomish” dostonida ham uchraydi:

Kiygani gulgun qirmizday,
Ko‘zi cho‘lpon yulduzday,
Boysundi xotin-qizlari,
Biznikiga qolmay to‘yga.

O‘zbek udumi bo‘yicha, to‘yga borishning o‘z tartib-qoidalari shakllangan. To‘yga borish uchun xotin-xalaj pishir-tushir qilib alohida tayyorgarlik ko‘rishgan. O‘zbekona shu udum mazmuni “Alpomish” dostonida Qultoy kiyimidagi Alpomishga hamroh bo‘lib to‘yga borayotgan ayollar obraziga singdirilgan.

Xalqimiz udumi bo‘yicha to‘yga to‘yona bilan borish, to‘yga yasanib borish odatlari hozirgacha amal qiladi. Bu haqda “To‘yga borsang, to‘yib bor, Eski to‘ningni qo‘yib bor”, “To‘yga to‘yona bilan bor” kabi xalq maqollari ham mavjud.

Afandi haqidagi latifalardan birida aytilishicha, Afandi to‘yga eski to‘nda borgan ekan, hech kim unga e’tibor bermabdi. Qimmatbaho kiyingan zotlar to‘rga o‘tqazilib, osh-ovqatning boshi ularga tortilibdi-yu, eski kiyimda, poygakda o‘tirgan Afandi e’tiborsiz qoldirilibdi. Afandi uyiga to‘ydan och-nahor qaytibdi. Boshqa safar Afandi ham to‘yga kimxob choponlar bilan boribdi. Hammaning e’tibori unga qaratilibdi. Noz-ne’matlarni oldiga uyib tashlabdilar. Shunda Afandi to‘niga qarab: “Ol, to‘nim, bu shirin-shakar taomlar senga, ye”, – degan yekan.

Bu latifada Afandining to‘yga borish qoidalarini buzgani sabab kamsitishga duch kelgani tasvirlanmoqda.

Rost, ba’zilar to‘yda kishilarning jamiyatda, odamlar orasida tutgan mavqeiga, kiygan kiyimiga qarab muomala qiladi. Yuqoridagi latifada shu holat satirik kulgi ostiga olimoqda. Afandi to‘yxonada juldur kiyingani uchun poygakka o‘tir tirilganini sezgach, ranjiydi. Keyingi safar qimmatbaho kiyinib borib, peshkadan joy olib, laganbardorlarni xijolat qiladi.

“Alpomish” dostonida Yartiboy ismli oqsoqolning befarosatligi sabab to‘ylarda mana shunday behurmat qilinishi tasvirlangan. Dostonda u haqda: “Majlislikun (to‘y yo biror yig‘in

demoqchi – S.Sh.) bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, poyga betda yotar edi”, – deyiladi.

Liboslarning ritual-magik xususiyatlarining bora-bora estetik ahamiyati kuchayib, lirik qahramonning kechinmalarini ifodalashga xizmat qilgan. Qo‘shiqlarda ko‘ylak kiyish maylni, maftun qilishni ifodalab, libosda bu istakni amalga oshiruvchi magik kuch bor deb, bilinadi:

Burama ko‘ylak kiyadi,
Etagi yerga tiyadi.
Shu zamonning qizlari
Tanlab erga tiyadi.

Burama ko‘ylak kiyishdan maqsad bor, ya’ni bunday libosdagi qizlar duch kelganga tegib ketishi mumkin emas va burama ko‘ylakning magik ta’siriga ishonch bor. Kuzatishlar o‘tmishda ayollar kiyinishlari bilan ham qiz , juvon yoki beva ekanligini bildirib yurganligini ko‘rsatadi.

Yor-yorlarda “oq ko‘ylak”, “oq paranji” kabi sifatlovchili birikmalar juda ko‘p qo‘llanadi. Bu bejiz emas , albatta. Chunki yor-yorlar nikoh to‘yi marosimi qo‘shiqlari bo‘lib, odatda, egniga oppoq libos kiyib, oq paranjida ota-ona uyini tark etib, bo‘lajak umr yo‘ldoshi huzuriga otlangan qizga qarata kuylanadi. Uzatilayotgan qiz ota-onasidan rozilik tilab, ularning tizzasiga bosh qo‘yadi. Bu an’anaviy udum hozirgacha saqlanib kelayotir. Shu sababli yor-yorlarda uchraydigan “oq ko‘ylak”, “oq paranji” kabi sifatlovchili birikmalar marosimiy mazmun-mohiyatga egaligi bilan e’tiborni tortadi. Qolaversa, ularning qo‘llanilishi bevosita xalqning oq rangni muqaddaslashtirishi, uni poklik, ulug‘vorlik ma’nosida tushunishi bilan bog‘liq.

Oq ko‘ylagim bor deysan, ajab, ajab
Nega kiyib yurmaysan, ajab, ajab
Sevgan yorim bor deysan, ajab, ajab
Nega olib yurmaysan, ajab, ajab

“Oq ko‘ylak” birikmasi baxt ko‘ylagi tushunchasini ifodalaydi. Bu birikmada oq rang sifatlovchisi poklik, bokiralik ramzida tushuniladi. Zero, oq libos bir olamdan ikkinchi bir olamga o‘tish vositasi sifatida qaralib, ilohiylashtirilishi sabab bo‘ladi. Shu asosda oq rangning ham baxt, ham baxtsizlik lahzalarida qo‘llanib kelishik uzatiladi.

Buxoroning Olot va Qorako‘l tumanlarida nikoh to‘yining “Joy yig‘di” uzvida kelinchakka lachak kiydiriladi. Bu “Lachakbandon”, ya’ni “Lachakbog‘lash” deb yuritiladi. Buxoro shahri va unga yaqin tumanlarda esa bu marosim “Sallabandon” – “Salla o‘rash” deb nomlanadi hamda «Beshik to‘yi» marosimining oxirida qiz endi «Haqiqiy ayol, ona, xotin, alohida bir ro‘zg‘orning bekasi» bo‘lganligiga ishora sifatida «boshi bog‘liq ayol» degan ma’noda o‘tkaziladi. «Sallabandon» qilingandan so‘ng kelinchaklar katta ayollar bilan bir qatorda o‘z mahallalarida bo‘ladigan barcha to‘y va motam marosimlarida doimiy, teng ishtirok etishlari lozim sanalgan. Shungacha ularning ishtiroki erkin bo‘lgan. Biroq «Sallabandon»dan so‘ng to‘y-ma’rakalarga qatnashmaslik uyat hisoblangan.

XULOSA

Xullas, kiyim-kechaklar marosimiy funksiya kasb etishi hozirgi to‘y va aza marosimlari orqali ham tasdiqlanadi. Marosim turini ularda qatnashuvchilarning kiygan liboslariga qarab ham farqlash mumkin. Masalan, xatna qilinadigan bolakay yoki marhumning yaqin kishilari kiyimlari bilan boshqalardan alohida ajralib turadi.

Teran xalqchillik bilan ajralib turgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodining go‘yalarida xalqning kundalik maishiy turmushi va ma’naviy hayoti bilan uzviy bog‘langan. Ularda insonning yuksak tuyg‘ulari, pok sevgisi, sadoqatlilik, do‘stlik kabi fazilatlari yuksak darajada kuylanadi. Shunday ekan, umumxalq tili leksik boyligining ajralmas qismini tashkil etgan kiyim-kechak nomlarining nafaqat badiiy ifodasi, balki o‘z atalish xususiyatlari mavjud. O‘zbek tilida liboslar xili va qismlarining nomlari juda ko‘p va shu kiyim-kechak nomlari xalq tilidan qo‘shiqlarga ko‘chib, turli davrlarda ijtimoiy turnush holatlarini ko‘rsatib bergan. Buyumlarning atalish negizida turli tasavvur va turli tushunchalar yotadi. Bu nomlar esa mana shu xalq yaratgan qo‘shiqlarda aks etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б. (Ashirov A. Ancient beliefs and rituals of the Uzbek people.-T.:Publishing House of the National library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2007.-276 p.).

2. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 48 б. (Joraev M. Khudoykulova L. Ceremony Brief information about the customs and ceremonies of the Uzbek people. T.:National library of Uzbekistan publishing house, 2008. – 48 p.).

3. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси тарихий асослари, бадиияти. – Т.: Фан, 1995. – 166 б. (Musakulov A. Historical foundations, art of Uzbek folk lyrics. -T.: Science, 1995.-166 p.).

4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.221-222. (Snesarev G.P. Relics of pre-Islamic beliefs and rituals among the Uzbeks of Khorezm. –M.: Science, 1969. – P.221-222.).

5. Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. XIX-XX асрлар. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.6. (N.Sodikova. Uzbek national clothes. XIX-XX centuries. –T.:Shark, 2003.- P.6.).

6. Мусақулов А. Ўзбек халқ қўшиқларининг тарихий асослари. – Т., 1995. – Б.154. (Musakulov A. Historical foundations of Uzbek folk songs. –T.: 1995.-P.154.).

7. Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б. (White apple, red apple.Uzbek folk songs. Many roofs. Collector M. Alaviya. – Literature and Art publishing house named after G.Gulom, 1972. – 232 p.).

8. Тўй муборак, ёр-ёр. Тўпловчи ва нашрга таёрловчи О.Сафаров. – Т.:Маънавият, 2000. – 160 б. (Tuy muborak, yor-yor. O.Safarov, editor and publisher. –T.: pirituality -,2000. – 160 p.).